

DAVLAT XIZMATIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH TAJRIBASI

Abdullaev Sardorjon Sa'dulla o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti

Email adress (shapeman2222@gmail.com) telefon raqam (+998910120115)

Annotatsiya: Bugungi tezkor zamonda va globallashuv davrida boshqaruv kadrlari tizimida KPI baholash tizimini to'g'ri qo'llash va kutilayotgan natijaga erishishda sohadagi amaliyotni tahlil qilish va tizimni muntazam takomillashtirishga ehtiyoj seziladi.

Kalit so'zlar: KPI, baholash tizimi, samaradorlik, davlat fuqarolik xizmati

Kirish:

So'nggi yillarda davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirish va ularning faoliyatini natijadorlikka yo'naltirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari qabul qilinib, mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini baholashning huquqiy asosini ta'minlash bo'yicha ildam qadamlar qo'yildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 8 avgust kuni O'RQ-788-son "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, Qonunning 36-moddasida "Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining samaradorligini baholash"ga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra, davlat fuqarolik xizmatchisini rag'batlantirish hamda xolisona va adolatli mezonlar asosida xizmatda lavozim bo'yicha ko'tarilishini ta'minlash uchun uning faoliyati samaradorligini eng muhim ko'rsatkichlar asosida baholash tizimi joriy etilishi belgilangan [1].

Davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish jarayonida boshqaruv kadrlarining samaradorligini baholashning yangi standartlari va uslublarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism:

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Bizga inson va

biznesning og'irini yengil qiladigan, ularga sifatli xizmat ko'rsatadigan ixcham va samarali boshqaruv tizimi kerak"[2].

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatini isloh qilish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat boshqaruvi samaradorligi – mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash tizimi islohotlarning amalga oshirilishida muhim o'rin tutadi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini baholash masalasi har mamlakat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega. "O'zbekiston-2030" strategiyasida "xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish" asosiy g'oyalardan biri sifatida aks ettirilib, strategiyadagi maqsadli ko'rsatkichlarga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ustuvor vazifa sifatida belgilangan [3].

Baholash amaliyotida KPI ko'rsatkichlarining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarning baholanuvchi rahbarlar tomonidan noto'g'ri kiritilish holatlari, belgilangan muddatlarda hisobotlarni kiritish hamda tasdiqlovchi tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida tasdiqlamaslik holatlari aniqlangan.

Bunday holatlarning kelib chiqish sabablari tahlil qilinganda davlat tashkilotlarining aniq va obyektiv baholash mezonlarini ishlab chiqishga zarurati, samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda uslubiy qo'llanmalarning mavjud emasligi, samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashda inson omili mavjudligi sabablarini keltirish mumkin.

Mazkur aniqlangan muammolar yechimi bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda tashkilotning asosiy vazifalari ijrosiga bog'lash, mas'ul tashkilotlar tomonidan samaradorlik ko'rsatkichlarini soha mutaxassislari ishtirokida qo'llanmalar ishlab chiqish hamda raqamli integratsiya jarayonlarini to'liq joriy qilish ishlarini amalga oshirish tavsiya etiladi.

Zamonaviy boshqaruvda raqamli texnologiyalardan foydalanish boshqaruv faoliyati samaradorligini oshiribgina qolmay, balki uning shaffofligi, sifatini

oshirish va iqtisodiy jihatdan tejamkorligiga ham imkoniyat yaratishi mumkin [4].

Xulosa:

Baholash tizimi doimiy ravishda takomillashtirilib turilishi kerak. Chunki mamlakat rivojida malakali va professional kadrlarning o'rni beqiyos. Baholash tizimini shaffof ishlashi har bir davlat xizmatchisining qo'lida. Tizim qanchalik adolatli yo'lga qo'yilsa, bu faqat xalq farovonligiga xizmat qiladi.

Davlat xizmatida samaradorlikni baholash tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. KPI samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda har bir davlat idorasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

2. Xorijiy tajribalar asosida davlat xizmatchilari uchun maxsus o'quv dasturlarini tashkil qilish.

3. Baholash jarayonining shaffofligini ta'minlash uchun raqamlashtirish va integratsiya ishlarini amalga oshirish.

4. KPI samaradorlik natijalariga qarab davlat fuqarolik xizmatchilarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni O'RQ-788.

2. Sh.M.Mirziyoev. Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi renessansni barpo etish yo'lida mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. 08.05.2023 y. Oliy Majlis palatalari a'zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvdagi nutq [https://president.uz/uz/lists/view/6277 //](https://president.uz/uz/lists/view/6277)

3. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni

4. Ergashev.J.J "Boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning xorij tajribasi" Maqola. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021 yil.